

**MUZEYSHUNOSLIK FANNING MAQSADI**

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining

ilmiy xodimi Yuldasheva. D

Mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo'llab quvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlari sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga inovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek muzeylarda o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renesans davrlari, buyuk allomalar xayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to'plamlaridagi boy tarixiy va madaniy me'rosimizni keng targ'ib qilish

Muzeyshunoslik-muzeylarning tarixi va ijtimoiy vazifalari, muzey ishining nazariyasi va metodikasi masalalarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Muzeyshunoslik muzey ishi nazariyasi, muzey ishi tarixi, muzey manbashunosligi, muzeyshunoslikning ilmiy metodikasi kabi tarmoqlarga bo'linadi. Muzeyshunoslikda muzeylarning tabiat va jamiyatni o'rganish bilan uzviy bog'liq bo'lgan manbalarni to'ldirish, muzey buyumlarini ilmiy hujjatlashtirish, o'rganish va saqlash, ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etish, ilmiy-ma'rifatparvarlik faoliyati va boshqalarda namoyon bo'ladigan sotsial funksiyalari ustida tadqiqotlar olib boriladi. Shuningdek muzeylarni to'ldirish, yodgorliklarni hisobga olish, saqlash va restavratsiya qilishning ilmiy prinsiplarini o'rganadi.

Muzeyshunoslik deganda odatda «muzey ishi haqidagi fan», «muzeylar haqidagi fan» yoki qisqa qilib aytganda «muzey nazariyasi» tushuniladi. Lekin bu yuzaki tasavvur bo'lib, hozirgi kunda shu bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Shunday ekan muzeyshunoslik tushunchasining hal qiluvchi aniqlovchi belgisi va formulirokasini aniqlash vazifasi paydo bo'ladi. Yagona va hamma tan oladigan ilmiy ta'rif hozircha mavjud emas. Bunday murakkablik faqat muzeyshunoslikki xos bo'lmasdan, yangi paydo bo'lgan ko'plab fanlarda ham mavjud.

Muzeyshunoslik (kamida 16 asrdan boshlab) tajribalarni umumlashtirish va materiallarni tizimlashtirishning uzoq yo'li orqali o'zining nazariy tizimini, uslubini



va fanlar ichidagi o'zining o'rnini aniqlay boshladi. Lekin faqat keyingi o'n yilliklarda asosiy tushunchalarning shakllanishi, fanning umumiy nazariy elementlarining yaratilishi muzeyshunoslikning rivojlanishini belgilab berdi.

Muzeyshunoslikka oid adabiyotlarda ilmiy fan bo'lgan muzeyshunoslik bir xilda tadqiq qilinmaydi. Ko'plab mamlakatlarda muzeyshunoslikka mustaqil fan sifatida qaraladi, lekin uning xarakterli belgilarini aniqlashda ayrim tafovutlar, kelishmovchiliklar mavjud.

Bundan tashqari ayrim mamlakatlardagi olimlar muzeyshunoslikning maxsus fan sifatida shakllanishi mumkinligini butunlay rad qilishadi. Shularga qaramasdan hozirgi kunda muzeyshunoslik muzeylarning Xalqaro Kengashi (IKOM) tomonidan to'la tan olindi. Shunday qilib, muzeyshunoslikka ta'rif beradigan bo'lsak, Muzeyshunoslik-bu ijtimoiy fan bo'lib, sotsial informatsiyalarni to'plash, saqlash jarayonlarini, bilimlarni va hissiyotni bilish va muzey predmetlari orqali yetkazib berishni, muzey ishini, ijtimoiy institut sifatida muzeyni, uning sotsial funksiyalarini va turli ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarda ularning amalga oshirish formalarini o'rganadi.

Lekin o'rganishning predmeti, o'rganishning obyektidan farq qilib, doimo o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak va ana shu o'ziga xoslik mustaqil ilmiy fanning muhim belgisi hisoblanadi. Uni topish va loyihalash kerak bo'ladi. Hozirgacha olib borilgan ilmiy izlanishlarga tayanib, muzeyshunoslikning predmetini quyidagicha belgilash mumkin: Muzeyshunoslikning predmeti-sotsial axborotlarni to'plash va saqlash jarayonlarining, bilimlarni, an'analarni, tasavvurlarni va hissiyotini anglash va muzey predmetlari orqali yetkazib berishning, muzeyning, muzey ishinining paydo bo'lishi, rivojlanishi va ijtimoiy doirasini o'rganishdan iboratdir.

Endi muzey predmeti tushunchasiga aniqlik kiritish kerak. Bu masalaga olimlar XVII asrdayoq aniqlik kiritishga harakat qilishgan. I. D. Mayorning urinishlari bunga misol bo'la oladi. U muzeyda saqlanadigan predmetlarga real, to'la, haqqoniy, qudratli va uzoq vaqt saqlanadigan narsalar sifatida qaragan.

XIX asrga kelib fanning ixtisoslashuvi shunga olib keldiki, muzeylarda saqlanayotgan predmetlarga ko'proq turli fanlarning manbalari sifatida san'at



asarlari, tabiat parchalari sifatida qarala boshlandi. Bularning barchasini umumlashtiruvchi «kolleksion predmet» degan tushuncha paydo bo'ldi.

Hozirgi paytda muzey predmeti deganda asl nusxadagi hujjat ahamiyatiga ega bo'lgan va muzey sohasiga mos tushadigan inson faoliyatining natijasi yoki tabiat hayoti tushuniladi.

Hozirgacha fan to'plagan ma'lumotlarga asoslanib muzey predmeti-bu real voqelikdan ajratib olingan, muzey ahamiyatiga ega bo'lgan, muzey to'plamiga kiritilgan va uzoq vaqt saqlanishi mumkin bo'lgan predmetdir. U ijtimoiy yoki tabiiy-ilmiy axborotlarni tashuvchi-bilimlar va ruhiy kechinmalarning asl manbai, madaniy-tarixiy boylik-milliy mulkning bir bo'lagi hisoblanadi.

Aytilganlardan xulosa qilib muzeyga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Muzey-bu sotsial axborotlarning tarixan o'zaro bog'lovchi ko'p funktsiyali institut bo'lib, madaniy-tarixiy va tabiiy-ilmiy boyliklarni saqlashga, axborotlarni to'plashga va muzey predmetlari orqali tarqatishga mo'ljallangandir. Muzey turli jarayonlarni, tabiat va jamiyat hodisalarini hujjatlashtiradi, muzey predmetlarining kolleksiyasini to'ldiradi, saqlaydi, o'rganadi, shuningdek ulardan ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy va tashviqotchilik maqsadlarida foydalaniladi.

Muzey predmetlarini tadqiq qilishda, muzey kommunikatsiyasini amalga oshirishda ijtimoiy va tabiiy fanlarning har xil uslublari qo'llaniladi. Jumladan, maxsus va yordamchi tarix fanlarining, san'atshunoslik va adabiyotshunoslikning uslublari keng qo'llaniladi. Muzey ekspozitsiyasini va ko'rgazmasini tayyorlashda, muzeyga keluvchilarni o'rganishda va turli formadagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini amalga oshirishda pedagogika va psixologiyaning uslublari ham foydalaniladi. Muzey predmetlarini restavratsiya va konservatsiya qilishda tabiiy fanlarning uslublari-rentgenografiya, spektografiya va boshqa uslublar qo'llaniladi.

Ko'plab tabiiy va ijtimoiy fanlarda mavjud bo'lgan dala tadqiqotlari uslubidan foydalaniladi. Bu uslub mavjud bo'lgan va amal qilinayotgan tizimlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Ekspozitsiya sohasidagi tadqiqot, uni o'zlashtirish, konservatsiyaga oid ish, muzey predmetlarini restavratsiya qilish eksperimental uslubni qo'llashni talab qiladi.



Bu uslublarning barchasi muzeyshunoslikda o'rganish predmetining xususiyatiga qarab bir holatdan boshqa xolatga o'tib turadi. Muзейshunoslikda qo'llaniladigan ilmiy uslublar hozircha ana shulardan iborat. Albatta fanning rivojlanishi bilan u qo'llanadigan uslublar ham ko'paya boraveradi.

Misol tariqasida qadimgi Yunon muzeylarini keltirish mumkin. Muzeylarning dastlabki vatani Yunonistondir. Yunonistonda Gelikon tog'i atrofida muzalarga bag'ishlab har besh yilda bir marta bayramlar o'tkazilib, unda shoirlar, rassomlar, va haykaltaroshlarning o'zaro musobaqalari bo'lib turgan.

Muzeylar ayniqsa Yevropada Uyg'onish davrida rivojlangan. 15 asrda Italiyada ilk marotaba ommaviy muzey ochilgan. Londondagi Britaniya muzeyi (1753), Parijdagi Luvr muzeyi (1793) va boshqalar ham Yevropadagi ilk ommaviy muzeylardan hisoblanadi.

O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston muzeylari haqida gapiriladigan bo'lsa, san'at asarlari, badiiy boyliklar, odamlar sig'inadigan hayvonlar, xudolarning haykallari va yozuvlari qadrlangan va yig'ib borilgan, ammo ommaviy muzeylar yurtimizda rus bosqinidan keyin paydo bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Almeyev R. Muzei Uzbekistana i sotsialno-kulturnie perspektivi ix razvitiya. – Tashkent: Izdatelsko-poligraficheskiy dom imeni Gafura Gulyama. 2007.
2. Ilalov I. Muzevedeniye. – Tashkent: Musiqqa, 2006.
3. Arxiv.uz